



O'QUVCHILARNING INDIVIDUAL-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI VA ULARNING INTIZOMGA TA'SIRI

Abdusalomov Zuxriddin Abduvali o'g'li

Osiyo xalqaro universiteti 1-kurs magistratura talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'quvchilarning individual-psixologik xususiyatlari, xususan temperamentning ta'lim jarayonida intizomni shakllantirishdagi roli ilmiy-nazariy jihatdan yoritilgan. Tadqiqot shaxsga yo'naltirilgan ta'lim konsepsiyasi doirasida olib borilib, ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, taqqoslash va pedagogik umumlashtirish metodlariga asoslanadi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, temperament turlariga mos pedagogik yondashuvlardan foydalanish o'quvchilarning intizomiy barqarorligi va o'quv motivatsiyasini oshirishga xizmat qiladi. Maqolaning ilmiy yangiligi temperamentga mos intizomni shakllantirish mexanizmlarining tizimli modelini taklif etilishi bilan belgilanadi

Kalit so'zlar. temperament, individual-psixologik xususiyatlar, intizom, pedagogik yondashuv, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim.

KIRISH

Zamonaviy ta'lim tizimida shaxsga yo'naltirilgan yondashuv yetakchi pedagogik tamoyil sifatida e'tirof etilmoqda. Ushbu yondashuv har bir o'quvchining individual-psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishni taqozo etadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyevning "Yangi O'zbekiston strategiyasi"da ta'lim sohasining ustuvor yo'nalish sifatida belgilanishi pedagoglardan o'quvchi shaxsini chuqur o'rganishni talab etadi. O'quvchilarning individual xususiyatlari ularning yosh, temperament, qobiliyat, bilish uslubi va hissiy holatlari bilan belgilanadi. Ushbu omillarni e'tiborga olmasdan tashkil etilgan ta'lim jarayoni o'quvchilarda intizomsizlik, motivatsiyaning pasayishi va bilimlarni yuzaki o'zlashtirishga olib kelishi mumkin. Shu sababli temperamentning intizomga ta'sirini ilmiy asosda o'rganish dolzarb hisoblanadi. Mazkur tadqiqotning maqsadi – o'quvchilarning temperament



xususiyatlari va intizom o'rtasidagi bog'liqlikni tahlil qilish hamda pedagogik amaliyot uchun ilmiy xulosalar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot metodlari: ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, taqqoslash, pedagogik kuzatuv va umumlashtirish. Har bir o'quvchining o'ziga xos dunyoqarashi, tahlil qilish usuli va axborotni qabul qilish tezligi bor. Masalan, ba'zi o'quvchilar mantiqiy fikrlashda ustun bo'lsa, boshqalari vizual tasavvur orqali o'rganishni afzal ko'radi. Kimdir tez fikrlaydi, kimdir esa asta-sekin, lekin chuqur o'rganadi. Bu farqlarni e'tiborga olmasdan dars tashkil etish — o'quvchilarning motivatsiyasini pasaytiradi va bilimni yuzaki egallashga olib keladi. Shu bois, o'qituvchi har bir o'quvchini individual shaxs sifatida qabul qilishi, uning kuchli va zaif tomonlarini aniqlab, ta'lim jarayonini shunga moslashtirishi lozim.

Temperament insonning tug'ma, nerv tizimining kuchi, muvozanati va harakatchanligiga asoslangan psixik xususiyati hisoblanadi. U shaxsning tashqi olamga munosabati, faoliyatga bo'lgan yondashuvi hamda ijtimoiy hayotdagi o'rnini belgilab beradi. Temperament lotincha "temperamentum" degan so'zdan olingan bo'lib, buning ma'nosi "aralashma" degan manoni anglatadi. Temperament psixologik fanlarda ko'p asrlik tarixga ega tushuncha bo'lib, dastlab yunon olimi Gippokrat tomonidan kiritilgan. U shaxs temperamentini to'rt tana suyuqligi (qon, qora o't, sariq o't, balg'am)ning nisbatiga bog'lagan. Keyinchalik nemis vrachi Galen temperamentning to'rt turi (sangvinik, xolerik, flegmatik, melanxolik)ni ilmiy ravishda asoslagan. Temperament to'qrisidagi dastlabki ta'limotni yunon olimi Gippokrat (V asrda) yaratgan bo'lib, uning tipologiyasi to hozirgi davrgacha qo'llanilib kelinmoqda. Gippokrat ta'kidlashicha, inson tanasida to'rt xil suyuqlik (sharbat) mavjud bo'lib, ular o't yoki safro (yunoncha chole), qon (latincha sanguis yoki sanguinis), qora o't (yunoncha melas "qora", chole "o't"), balg'am (yunoncha "pxlegma") kabilardan iboratdir.

Temperamentning fiziologik asoslariga ulkan o'z hissasini qo'shgan olimlardan biri bu rus psixologi I.P.Pavlov hisoblanadi. I.P.Pavlov hayvonlarning oliy nerv faoliyatini tadqiq qilayotganida itlarda shartli reflekslarning paydo bo'lishi, kechishi, davom etishi xususiyatlari insonlarnikidan farq qilishi va bu hodisa



temperamentda ham uchrashi mumkinligini kashf etadi. I.P.Pavlov temperament ham shartli reflektor faoliyatining individual xususiyatlarini keltirib chiqaruvchi omillar bilan bog'liq bo'lishi mumkin, degan xulosaga keladi. I.P.Pavlov 4 ta asosiy tiplarni ajratadi. Ular: 1. Kuchli, muvozanatsiz, va harakatchan tip; 2. Kuchli, muvozanatli, inert 3. Kuchsiz, muvozanatsiz- qizg'in, jo'shqin tip 4. Kuchsiz, muvozanatsiz, og'ir – vazmin. I.P. Pavlov temperamentni markaziy nerv tizimi xususiyatlari – kuchlilik, muvozanatlilik va harakatchanlik orqali izohlagan. Bu yondashuv biologik asosli bo'lib, har bir temperament turi nerv tizimining muayyan kombinatsiyasi sifatida qaraladi.

Nemis faylasufi Iogan Kant – temperamentni tana tuzilishi va fiziologik vazifalarini o'rgangan. Shuningdek nemis psixiatri, konstitutsion nazariya asoschisi E. Krechmer 1921- yilda tana va xarakter tuzilishi nomli asarida temperament tipologiyasini ishlab chiqdi. Unga ko'ra: 1. Leptosomatiklar- mo'rt tana, baland bo'y, yassi ko'krak qafasi, tor yelka, uzun va oriqli oyoq, qo'l; 2. Piknik- yog' to'qimasi bor, o'ta semiz, o'rta yoki past bo'y, katta qorin; 3. Atletik- baquvvat mushaklar, kuchli tana, baland yoki o'rta bo'y, keng yelka, tor bo'ksa; 4. Displastik- shaklsiz, noto'ri tana, o'ta baland bo'y, mutanosib bo'lmagan tana kabilar keltirib o'tilgan.

Q. Yo'ldoshev temperamentni shaxs faoliyatining asosi deb hisoblab, uni o'quvchining aqliy rivojlanishi, emotsional barqarorligi va ijtimoiy moslashuvchanligida muhim determinant sifatida ko'radi. U o'z tadqiqotlarida temperamentni: Biologik asosga ega shaxsiy xususiyatga va pedagogik ta'sir orqali boshqarilishi mumkin bo'lgan xususiyat deb ikki qirrali yondashuvda izohlaydi. Uning fikriga asosan, temperament – harakat faolligi, psixik reaktivlik va emotsional boshqaruv elementlarining uyg'unlashuvi hamda ta'lim muhiti temperament xususiyatlariga moslashganda shaxs rivoji optimallasadi.

M. Ibragimov o'z asarlarida temperamentning o'quv faoliyatidagi roli haqida chuqur tahlil bergan. Uning tadqiqotlarida quyidagi fikrlar asos qilib olingan. Birinchi, temperament o'quvchining bilimni qabul qilish sur'atiga ta'sir qiladi. Ikkinchi, turli temperament vakillariga differensial yondashuvlar zarur.



Gippokratning 4 xil moddalar aralashmasi, ya'ni temperament tushunchasi va uning tipologiyasi (sangvinik, xolerik, flegmatik, melanxolik) ramziy ma'noda hozirki zamon psixologiyasida ham qo'llanilib kelinmoqda. Temperamentning ilmiy psixologik asoslari va uning fiziologik mexanizmlari keyingi ijtimoiy tarixiy taraqqiyotning bosqichlarida yaratiladi hamda bu borada izlanishlar davom ettirilmoqda. Shuni aytish joizki, har bir inson qaysidur temperament egasi yoki unda faqat bir temperamentga mansub bo'lmaydi. Shunchaki bu to'rt turidan biri ustunligiga qarab ularni shu turga qarashli deyish mumkin. Xolerik - tipdagi shaxs odatda tez hayajonlanadigan, serharakat, hissiy reaksiyalari kuchli va kayfiyati tez o'zgaruvchan, jahldor juda harakatchan va tavakkalchi bo'ladilar. Xolerik temperamentli insonlar energetik, jo'shqin, faol va tezkor bo'ladilar. Xolerikning mehnat salohiyati yuqori bo'lsa-da, u ko'pincha ishni jo'shqinlik bilan boshlab, tez orada qiziqishi so'nib, uni yarim yo'lda qoldirib qo'yishi mumkin. Uning faoliyati barqaror emas: ba'zan nihoyatda shiddat bilan ishlasa, ba'zan esa sekinlashib qoladi. Sabrlik, vazminlik va bardoshlilik zarur bo'lgan jarayonlarda xolerik odatda qiynaladi, chunki uning tabiiy holati tezkorlik va kuchli hissiylikka moyildir. Xolerikning jahlini chiqarish juda oson. Bu tip vakillari tez yonib, tez o'chadilar. Xolerik ham kuchli tipga kiradi. Ularning yoqtirgan ranglari ham kuchli, ta'sirchan va jonli bo'ladi. Xolerik temperamentli insonlar ko'pchiliklari (qizil, to'q sariq, sariq va qora kabi to'q, murakkab) ranglarni yoqtiradilar. Ular juda intiluvchan har sohada o'zlarini sinab ko'rishga uddaburon bo'ladilar. Xoleriklarning yetakchiligi ham atrofida qilarga kuchli ta'sir qiladi va ruhlantirishga ham moyil bo'ladilar. Maqsad sari ham kuchli intiladilar, ular ishni tez boshlab, o'zlarini tez ko'rsatishga odatlangan bo'ladilar. Ammo ular tashqi olamdan kelayotgan yomon (negativ) so'z yoki tanbehlariga uzoq vaqt bardosh qilmaydilar. O'zlarini yerga urmaydilar va o'z "men" larini kuchli himoya qiladilar. Sangvinik - quvnoq, chaqqon, tirishqoq va ta'sirchan odam. Sangvinik odatda yangi sharoit va odamlar bilan tez til topisha oladi, tashqi ta'sirlarga faol javob qaytaradi. U suhbatga kirishuvchan, so'zga chechan va muloqot jarayonida yuz ifodalari hamisha jonli bo'ladi. O'zi yoqtirgan



faoliyatga ishtiyoq bilan sho'ng'iydi, biroq uzoq davom etadigan, muntazamlik talab qiladigan ishlarni davom ettirishda qiyinchilikka duch kelishi mumkin. Sangvinikni kuldirish oson. Sangvinik kuchli tipga kiradi. Sangvinikning asosiy psixologik xususiyatlari Psixik jihatlar Xususiyati Faollik Juda faol, tashabbuskor Hissiyot Barqaror, ijobiy, quvnoq Nutq tez, ravon, ifodali Xotira hajmi Tez eslab oladi, lekin ba'zida tez unutadi (beqaror) Muloqotga munosabat Oson kirishuvchan, ochiqko'ngil Qiyinchilikka munosabat Og'ir vaziyatlarda kuchli optimizm bilan yondashadi Flegmatik tipdagi shaxs odatda sokin, mulohazali va o'z his-tuyg'ularini nazorat qila oluvchi insonlardir. U ko'p gapirmaydi, ishni shoshilmasdan, sekin o'ylab boshlaydi va boshlagan ishini oxirigacha yetkazishga harakat qiladi. Murakkab yoki konfliktli vaziyatlarda ham u o'ziniidora qila oladi, hissiyotlarga berilmaydi. Agar sangvinik tez alangalanib, tez soviydigan bo'lsa, flegmatik asta-sekin jonlanib, uzoq muddat barqaror harakatdanamoyon bo'ladi. Lekin tezkor javob yoki chaqqonlik talab etiladigan vaziyatlarda u ba'zan sekinlik qilishi mumkin. Biroq matonat, qat'iyat va sabr-e'tibor talab etiladigan jarayonlarda aynan flegmatik ko'proq muvaffaqiyatga erishadi. Flegmatikni kuldirish ham, jahlini chiqarish ham qiyin. Flegmatik kuchli tipga kiradi. Melanxolik - g'amgin, zaif, yig'loqi va jur'atsiz odam. Melanxolik odatda nozik qalbli, tez ranjiydigan va o'ziga ishonchi sustroq insonlardir. U murakkab vazifalarni bajarishga shoshilmaydi va ko'pincha qat'iy qaror qabul qilishda qiynaladi. Mayda to'siqlarning o'zi unga katta muammo bo'lib tuyulishi mumkin, shu sababli u ko'pincha kurashishdan voz kechadi. Bunga qarama-qarshi ravishda sangvinik va flegmatik qiyinchiliklarni nisbatan sokin va oson yengib o'tsa, xolerik esa ularni kuchli iroda va keskinlik bilan tezda bartaraf etishga intiladi. Melanxolikda ijobiy his-tuyg'udan salbiy his-tuyg'ular ustunlik qiladi. Melanxolik - temperamentning kuchsiz tipi hisoblanadi. Temperament o'quvchining xulq-atvori va intizomiy barqarorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Turli temperament vakillari bilan ishlashda pedagogik yondashuvlar ham farqlanishi lozim.



Xolerik o'quvchilar yuqori faollik va hissiy jo'shqinlik bilan ajralib turadi. Ular bilan ishlashda aniq qoidalar, qisqa muddatli vazifalar va ijobiy rag'batlantirish intizomni mustahkamlashga xizmat qiladi. Sangvinik o'quvchilar muloqotga ochiq va moslashuvchan bo'lib, ularning intizomini saqlashda jamoaviy ishlar va ijobiy emotsional muhit muhim ahamiyatga ega. Flegmatik o'quvchilar barqaror va sabrli bo'lib, ularga vaqt bilan cheklanmagan, izchil talablar qo'yish intizomni rivojlantiradi. Melanxolik o'quvchilar esa nozik psixikaga ega bo'lib, qo'llab-quvvatlovchi muhit va individual yondashuv intizomni shakllantirishda samarali hisoblanadi.

Olib borilgan nazariy tahlillar shuni ko'rsatadiki, temperamentga mos pedagogik yondashuvlar qo'llanilganda o'quvchilarning intizomi va o'quv faoliyatiga bo'lgan motivatsiyasi barqarorlashadi hamda ta'lim samaradorligi oshadi. Turli temperament turlariga bir xil intizomiy talablarni qo'llash o'quvchilarning psixologik qarshiligini kuchaytirishi mumkin. Xususan, xolerik va sangvinik o'quvchilarda haddan tashqari qat'iy intizom ularning faolligini susaytirs, melanxolik o'quvchilarda keskin tanbeh va nazorat intizomsizlikka emas, balki ichki xavotirning kuchayishiga olib keladi. Flegmatik o'quvchilarda esa intizomning izchil va barqarorligi muhim hisoblanadi. Shu asosda temperamentga mos intizomni shakllantirishning quyidagi pedagogik mexanizmlari ajratildi: individual psixologik diagnostika asosida yondashuv; differensial talab va baholash mezonlari; rag'batlantirishga asoslangan intizom modeli; o'quvchi shaxsini kamsitmasdan boshqarishga yo'naltirilgan pedagogik muhit.

Mazkur mexanizmlar o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi ijobiy psixologik aloqani mustahkamlab, intizomni tashqi majburiyatdan ichki ehtiyoj darajasiga ko'tarishga xizmat qiladi. Temperamentga asoslangan intizomni shakllantirish modeli uch asosiy komponentdan iborat:

1. Diagnostik komponent – o'quvchilarning temperamentini aniqlash;
2. Moslashtiruvchi komponent – pedagogik talab va metodlarni temperamentga moslash;



3. Nazorat-refleksiv komponent – intizomiy o‘shishni tahlil qilish va tuzatish. Ushbu model ta’lim jarayonida individual yondashuvni tizimli ravishda amalga oshirish imkonini beradi.

XULOSA.

Xulosa qilib aytganda, temperamentga asoslangan ta’lim-tarbiya jarayoni shaxsga yo‘naltirilgan ta’limning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Temperament xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etilgan pedagogik jarayon o‘quvchilarda intizomiy barqarorlikni shakllantirishga xizmat qiladi. Kelgusida mazkur yo‘nalishda empirik tadqiqotlar olib borish va raqamli ta’lim platformalarini temperamentga moslashtirish maqsadga muvofiqdir. Shunday qilib, temperamentga asoslangan ta’lim-tarbiya jarayoni shaxsga yo‘naltirilgan ta’limning real ifodasi bo‘lib, nafaqat o‘quvchilarning individual rivojlanishini ta’minlaydi, balki o‘qituvchining pedagogik innovatsion salohiyatini ham oshiradi. Kelajakda bu yo‘nalishda milliy va xalqaro miqyosda chuqur tadqiqotlar olib borish, temperamentga mos raqamli o‘quv platformalarini ishlab chiqish, shuningdek, pedagoglarni temperamentga mos yondashuv bo‘yicha maxsus tayyorlash zarurdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Pavlov I.P. Vysshaya nervnaya deyatel'nost' zhivotnykh i cheloveka.-M.: Nauka, 1951
2. Chess, S., & Thomas, A. Temperament and Development. New York: Brunner/Mazel, 1977.
3. Nabixonova M. Bolalar temperamentining shakllanishida oilaning o‘rni. Toshkent: Fan, 2009
4. Yo‘ldoshev Q. Pedagogik psixologiya asoslari. Toshkent: O‘qituvchi, 2015
5. Ibragimov M. Ta’lim jarayonida shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv. Toshkent: TDPU, 2013
6. E. G‘oziyev. Umumiy psixologiya. Shaxsning psixologik xususiyatlari. Temperament. Toshkent, 2020.



7. Ganiyeva G.I. O'quvchilar temperamentiga moslashtirilgan ta'lim-tarbiya jarayonining pedagogik-psixologik mexanizmlari. Science and Education. Scientific Journal, 2025.11.25